

**O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ROMANIDAGI
QAHRAMONLAR TALQINI**

Muzaffarova Feruzabonu Yodgor qizi,

Buxoro xalqaro universiteti talabasi.

Barotova Muxiba Orifovna,

Buxoro xalqaro universiteti o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`zbekistonning taniqli yozuvchisi, adib O`tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanini qisman tahlil etilgan, asar qahramonlarining hayot yo`li, ijobjiy va salbiy xarakterlari, inson umrining murakkabligi haqida so`z yuritilgan.

Аннотация: В данной статье частично анализируется роман известного писателя Узбекистана Откира Гашимова «Между двумя дверями», обсуждаются жизненный путь героев произведения, положительные и отрицательные персонажи, сложность человеческой жизни.

Annotation: In this article, the novel "Between Two Doors" by Otkir Hashimov, a well-known writer of Uzbekistan, is partially analyzed, the life path, positive and negative characters of the heroes of the work, and the complexity of human life are discussed.

Kalit so'zlar: insonparvarlik, "Ikki eshik orasi", qahramon, pafos, roman.

Ключевые слова: гуманизм, «Между двумя дверями», герой, пафос, роман.

Key words: humanitarianism, "Between Two Doors", hero, pathos, novel.

Xalqimizning hozirgi tinch va osoyishta hayoti ortida necha minglab insonlarning hayoti tikilgan. Insoniyat tarixidagi eng katta talofat keltirgan ikkinchi jahon urushi millionlab kishilarning halokatiga sabab bo`lish bilan birga, uning oqibatlari odamlar ongida salbiy o`zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Ochlik, muhtojlik odamlarni bir-biriga dushman qilib qo`ydi, yana ayrimlarni qing`ir yo`lga boshladi. Ana shunday muammolarni, xalqimizning urushdan oldingi va keying hayotini qamrab olgan asarlar bir nechta: Oybekning "Quyosh qoraymas", Shuhratning "Shinelli yillar", I.Rahimning "Chin muhabbat", "Fidoyilar" kabi romanlari bevosita urush maydonini gavdalantirsa, Sh.Rashidovning "Qudratli to'lqin", "G'oliblar", S.Axmadning "Ufq", H.Gulomning "Toshkentliklar", O.Yoqubovning "Er boshiga ish tushsa...", X.To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" kabi asarlari avvalo 60-70-yillarda yozilgani bilan yuqoridaq asarlardan ajralib tursa, ikkinchidan ularda bevosita urush manzaralari emas, balki front orti ommaviy mehnat qahramonliklari aks ettiriladi [3]. Bu asarlar qatorida O`tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanini kitobxonlarning sevimli kitobi sifatida e'tirof etiladi. O`tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanini 1986-yilda yozilgan bo`lsa-da, bugungi kungacha kitobxonlar qo`lidan tushmayotgan shoh asarlardan biridir. Asarni mutolaa qilgan kitobxonning qalbida ajib bir hislar paydo bo`ladi. Romanda o'tgan asrdagi qonli urushning manzaralarini insonlar taqdiri misolida yoritib berilgan. Shu bilan birga,

Date: 17th June-2025

asardagi voqealar tizimi orqali urushning har bir oila a'zolari yuragida o`chmas dog` qoldirgani haqida so`z boradi.

Asardagi "Rost bilan yolg'on o`rtasi – to`rt enlik", degan maqol mavjud. Bu birligining maqolning o'zi ham inson taqdirining yaxshi yoki yomon tomonga o'zgarishi orasidagi farqni to`rt qadamga qiyoslamoqda. Bu esa yozuvchining hayotnining barcha jahbalarini teran anglab yetganligi, ana shu haqiqatni asar qahramonlari taqdirida mahorat bilan talqin qilganligi bilan xarakterlidir. Shu bilan birga, insonning ko`z va qulog'inining orasi ham to`rt enlik ekan. Xalqimizda "Eshitganingga emas, ko`rganingga ishon" – degan maqol bor. Bu ham dono xalqimizning hayotning achchiq-shirinini totganligidan dalolat va chuqur mazmuniy xulosaga kelganligidan dalolat beradi.

Yozuvchining mahorati shundaki, asarni mutolaa qilgan kishi qahramonning ichki kechinmalarini his etadi. Ular yig`lasa yig`laydi, quvonsa ular bilan birga quvonadi.

Asarda tasvirlangan hayot manzalari, insonlararo munosabatlari, ularning dialoglari, shuningdek, yozuvchining o`ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Romanning kompozitsion qurilishi ham o`ziga xosdir. Undagi personajlar hikoyalarini yozuvchi bir-biriga ustalik bilan bog`laydi. Tasvir uchun tanlangan bunday poetik usul yozuvchidan yuksak mahorat talab qiladi.

Asardagi Muzaffar obrazida juda ko`p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, samimiyligi inson qiyofasini ko'rish mumkin. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko`rk bag`ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro`-e`tibori, eng og`ir damlarda qiyinchiliklarni yengib o`tishga kuch topishi bilan kitobxon xotirasiga muhrlanadi.

Robiya obrazi haqida so`z ketganda kitobxon xayolida chiroqli, mehnatsevar, samimiyligi, sochlari uzun, haqiqiy o`zbek qiziga xos sifatlar bilan gavdalanadi. Robiyaga taqdir kulib boqmaydi. Yoshligidan onasidan yetim qolgan Robiya otasi tarbiyasida ulg`ayadi. Robiyadagi sadoqat tuyg`usi asarda shunday talqin etiladi: "Nimaga endi bunaqa deyapti?! Nimaga meni «qizim» deb chaqiradigan Shomurod tog`amga ravo ko`ryapti? To`g`ri, urush bitganiga besh yildan oshdi. Ammo besh yil nima bo`pti? Kerak bo`lsa o`n yil, yigirma yil kutaman! Umrim boricha kutaman! Mabodo Kimsan akam yo`q bo`lganida ham («o`lgan» deyishga tilim bormaydi) men borman-ku. Bundan chiqdi, Kimsan akam ham bor-da! Nahotki oyim umidini uzgan bo`lsa! Nahotki o`z o`g`liga atagan qizni o`zgaga ravo ko`rsa?! Asardagi insonlar taqdiri qanchalik murakkabligini birligining qizni o`zgaga ravo ko`rsa?! Asardagi insonlar taqdiri qanchalik murakkabligini birligining qizni o`zgaga ravo ko`rsa?!" [1]

Asarning qimmatini oshiruvchi, haqiqiy mard, jasur, fidoiy o`zbek yigitini timsolini o`zida gavdalantirgan Qora ammaning yakka-yu yagona o`g`li Kimsan obrazidir. Yozuvchi Kimsan obrazi orqali yurti, oilasi, sevgan yorini himoya qilish uchun fashistlar qo`lida tom ma'noda o`zini qurban qilgan sadoqat timsolini yaqqol ifoda etgan ekanligini ko`rshimiz mumkin. Kimsan obrazi orqali urushning qanchalik xavf-xatarga boy ekanligini, uning oqibatlarini bilib olishimiz mumkin. So`zimning isboti sifatida asardan ayrim namunalar keltirib o`taman:

"- Dyadya Vasya!

Date: 17th June-2025

Qo‘l tirsakdan uzilib ketgan qoni qorayib qotib qolgan, sarg‘ish go‘sht orasidan oppoq suyak turtib chiqib turardi. Ajab, odamning go‘shti sarg‘imtir bo‘larkan.

Esim og‘ib, jinni boiib qolmaganimga o‘zim hay- ronman. Palaxsa-palaxsa qorga qo‘silgan loy boiak- larini oyoq-qo‘llarim bilan baravar tirmalar ekanman, bo‘g‘zimga yig‘i tiqilib qichqirardim.

- Dyadya Vasya! Dyadya Vasya!

Robiya! Qomi yorilib, ichak-chavag‘i loyga aralashib ketgan odamni ko‘rish juda dahshatli bo‘larkan! Yaqin odamingni shu alpozda ko‘rgandan ko‘ra o‘limingga ming marta rozi boiib ketarkansan, Robiya! Qadrdon boiib qolgan kishing ichak-chavagi isqirt qorga aralashib, cho‘zilib yotsa, shuni ko‘rib turib yordam berish qoingdan kelmasa, bundan ortiq azob bo`lmas ekan!” [1]

“Bolaning yuzidan silasam, barmog‘imga yumshoq, issiq narsa unnadi. Jonholatda qo‘limni tortdim. Ammo barmoqlarimga rezinkadek narsa yopishib qolgan edi. Qo‘limni tortgan sayin bolaning yuzi cho‘zilib ketyapti. Vahima ichida qo‘limni siltab ajratib oldim. Cho‘nqayib o‘tirgancha bolaga termildim.

Lovullab yonayotgan uylar gulxanida bolakayning nzobdan qiyshayib ketgan chehrasi aniq ko‘rinardi. Ikki yuzi, qosh-kipriklari kuyib, qorayib ketgan, ko‘zları vahima bilan bir nuqtaga baqrayib qotib qolgan, faqat lablari, jajji lablari yarim ochiq; hamon «a-a-a» deb chinqirayotganga o‘xshar, kemshik tishlari orasidan g‘archcha tishlab oigan tilining uchi chiqib turardi...” [1]

Asardagi qahramonlarning ba`zilari insofi, vijdoni, o`zbek xalqiga xos e`tiqodi bilan kitobxon ko`nglidan ijobiy o`rin olgan bo`lsa, Umar zakunchi kabi qattiqqo`l, vijdonsiz, o`z manfaati yo`lida hech narsadan tap tortmaydigan, nomard inson salbiy o`rinni egallagan. Zakunchining qattiqqo`lligi, kattalarni hurmat qilmasligi, vijdonsizligi asarda o`z aksini topgan: “Ko‘cha eshik zardali taqilladi-yu, og‘zidagi og‘zida, bo‘g‘zidagi bo‘g‘zida qoldi.

Uchovlashib, oldinma-keyin darvozaga chiqsak. Umar zakunchi otini gijinglatib turibdi. Boshida chaq- moq telpak, egnida pocha-po‘stin, qo‘lida qamchi.

- Yiling uyqu, muchaling yostiqmi? - dedi tuyog‘i hilan qor titkilayotgan otining jilovini siltab.

Oqsoqolni ko‘rdi-yu, Zakunchining ko‘zilari qisilib ketdi.

- Sen nima qilyapsan bu yerda? - dedi ingichka mo‘ylovi titrab. - Ikkita keliningni so‘qimga boqib qo‘yibsani?!?

Hayratdan og‘zim ochilib qoldi. Shu gapni Oqso- qolga aytyaptimi? Butun No‘g‘ayqo‘rg‘onda cholimdan bo‘lak bironta odam shu paytgacha sansiramagan oqsoqolga-ya?!” [1]

Xulosa qilib aytganda, adibning har bir asarini kitobxon o`zgacha maroq bilan, zavq-u shavq bilan mutolaa qiladi. O’. Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida, asosan, personajlarning hissiyotlari negativ ma`no kasb etadi. Sababi aniq, urush xalq boshiga kelgan katta kulfatdir. Hozirda texnika asri, biz yoshlar bu oltin merosimizni, ma`naviy durdona asarlarimizni xohlagan paytimizda, xohlagan sharoitimizda mutolaa qilishga

Date: 17th June-2025

imkoniyatimiz cheksizligidan faxrlansak arziydi. Mana shunday zamonda, Yangi O`zbekistonda yangi imkoniyatlar sari ildam qadam bosishdan, Vatanim ravnaqiga yanada ko`proq hissa qo`shishdan charchamaylik va bu yo`lda bor imkoniyatlarimizni ishga solaylik.

Zamonlar o`tar, odamlar o`zgarar, taraqqiyot avj nuqtalarga ko`tarilar, ammo O`tkir Hoshimovning bu romani boshqa mumtoz asarlar kabi xalq nazaridan qolmasa ajab emas!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O` . Hoshimov.Ikki eshik orasi,"Nurli dunyo"nashriyot uyi,2022
2. Bakhronova, M.A.,& Sayfullayeva M. Dictation as language learning tool. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: nazariy va amaliy izlanishlar 2022-y. B.-252-258.
<https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/1812>
3. Baxronova M.A. Badiiy asarlarga ko`chgan hayot saboqlari. Conferencea, 2022-y.B.-401-404. <https://conferensea.org/index.php/conferences/article/view/640>.

